

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AGRESSIV HATTI
HARAKATLARNI KOREKSIYALASH USULLARI**

*Qo‘qon universiteti ”Pedagogika va Psixologiya“
kafedrasи o‘qituvchisi*

Usmonova Nargiza Raximjonovna

*Qo‘qon universiteti Psixologiya (amaliy psixologiya)
4 boshqich talabasi*

Yuldasheva Iqlimaxon Zohidjon qizi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan agressiv hatti-harakatlar turlari, ularning kelib chiqish sabablari va psixologik korreksiyasi yo‘llari tahlil qilinadi. Agressivlikning jismoniy, og‘zaki, bilvosita shakllari, shuningdek, negativizm, gumonsirash va ayb hissi kabi ko‘rinishlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: agressivlik, boshlang‘ich sinf, psixologik korreksiya, Bass—Darki metodikasi, bolalar xulqi, emotsiional muammo.

Yosh avlod tarbiyasi, ularning sog‘lom ruhiy rivojlanishi va jamiyatga foydali shaxs bo‘lib yetishishi O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ayni paytda maktab ta’limi tizimida bolalarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning axloqiy, ijtimoiy va emotsiional rivojlanish darajasi ham markaziy o‘ringa chiqmoqda. Boshlang‘ich sinfda tahsil olayotgan o‘quvchilarning psixologik holatini o‘rganish, ulardagi salbiy xatti-harakatlarni aniqlash va bartaraf etish orqali sog‘lom shaxsni shakllantirish bugungi kunda pedagog va psixologlarning eng asosiy vazifasidir.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari aynan shu jarayonning ahamiyatini yoritib beradi:“Biz farzandlarimizni har tomonlama sog‘lom, bilimli va tarbiyalı etib voyaga yetkazish uchun barcha imkoniyatlarni yaratmoqdamiz. Ularning har biri davlat himoyasida bo‘lishi, huquqlari va manfaatlari ta’minlanishi kerak”.Ushbu so‘zlar maktabdagi har bir bola faqat bilim emas, balki ruhiy holat jihatidan ham e’tibor markazida bo‘lishi lozimligini anglatadi. Ayniqsa, psixologik muammolarga ega o‘quvchilarning erta aniqlanishi, ularning ichki kechinmalari bilan ishlash va mos ravishda korreksion dasturlar orqali ijobiy natijalarga erishish eng muhim vazifalardan biridir.Maktab muhitida ko‘p uchraydigan psixologik muammolardan biri bu – agressivlikdir. Agressivlik bolalarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi: jismoniy kuch ishlatish, og‘zaki haqoratlar, tez-tez jahli chiqish, obidachilik, shubhalanish, darsga befarqlik va muomala madaniyatining buzilishi. Bu holatlar o‘quv muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, jamoada notinchlik keltirib chiqaradi va bola ijtimoiy hayotidan chetlashadi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra, har uchinchi boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘zida kamida bitta salbiy emotsiyal-axloqiy xatti-harakat belgilarini namoyon qilgan. Agressivlik esa bu xatti-harakatlar ichida eng xavflisi bo‘lib, nafaqat bolaning o‘ziga, balki atrofdagilarga ham zarar yetkazishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun har bir maktabda psixologik monitoring tizimi joriy qilinishi, pedagog va ota-onalar bilan hamkorlikda profilaktik va korreksion mashg‘ulotlar olib borilishi muhimdir. Shuning uchun bugungi ilmiy-amaliy izlanishlar maktab psixologlari faoliyatiga ko‘mak bo‘lishi, ularni aniq metodlar va real tahlillarga tayangan holda yo‘naltirishi lozim. Shu bois, ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida uchraydigan agressiv hatti-harakatlar turlari, ularning yuzaga kelish sabablari, maktab va oilaviy muhit bilan bog‘liqligi, shuningdek, Bass–Darki metodikasi asosida olib borilgan psixodiagnostika asosida tuzilgan korreksion chora-tadbirlar yoritiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati – agressivlikni erta aniqlash, tahlil qilish va uni korreksiya qilish orqali o‘quvchilar shaxsini sog‘lom rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uchraydigan agressiv hatti-harakatlarning sabablari va ularni korreksiya qilish usullariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy, nazariy va amaliy adabiyotlar tahlil qilindi. Ular orqali mavzuga oid asosiy g‘oyalar, psixologik yondashuvlar va tajribaviy ishlanmalar aniqlab olindi. M.Quronboyeva “Maktab psixologiyasi asoslari” nomli asarida ta’lim muassasasidagi psixologik muhit, bolalarning emotsiyal barqarorligi va ularni individual kuzatish tizimi haqida so‘z yuritadi. Muallifning ta’kidlashicha, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi agressiv hatti-harakatni ko‘rsatgan hollarda, bu xatti-harakatning ildiz sabablari oilaviy munosabatlar, emotsiyal e’tiborsizlik yoki maktab ichidagi ijtimoiy bosimda bo‘lishi mumkin.R.Xodjayev tomonidan yozilgan “Amaliy psixologiya asoslari” nomli darslikda esa bolalar bilan olib boriladigan psixokorrektcion ishlar bosqichma-bosqich yoritilgan. U aggressiyani bosish emas, balki uni konstruktiv shaklga yo‘naltirish g‘oyasini ilgari suradi. Xususan, bolaning so‘z boyligini rivojlantirish, o‘zini erkin ifodalashga undash, uning emotsiyalarini tahlil qila olishga o‘rgatish kabi yondashuvlar berilgan.N.Solihovaning “Agressiv bolalar bilan ishlash usullari” asarida maktab amaliyotida uchraydigan real holatlar misolida individual yondashuvning afzalligi ko‘rsatilgan. Muallifning fikricha, har bir bolaning agressiv xatti-harakatiga universal yondashuv bo‘lishi mumkin emas. Ularni xulqidagi o‘zgarishlar faqat ijtimoiy munosabatlar, oilaviy tarbiya, psixologik profilaktika orqali yumshatiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning agressiv xulqlarini aniqlashda keng qo‘llanilayotgan A.Bass va A.Darki tomonidan ishlab chiqilgan metodika haqida ham alohida to‘xtalib o‘tiladi. Bu metodikada aggressiyaning 8 turi aniq belgilab berilgan bo‘lib, ular: jismoniy aggressiya, og‘zaki aggressiya, bilvosita aggressiya, negativizm, gumonsirash, xafachilik, jahldorlik va ayb hissidi Ushbu metodikani qo‘llash orqali boladagi aniq

agressiv profil shakllanadi va unga mos korreksion yondashuv tanlash imkonini beradi. Internet manbalar orasida esa, www.psychologytoday.com, www.pedagoglar.uz, www.lex.uz kabi platformalardagi maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Xususan, maktab psixologlari faoliyati, bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanish, oiladagi muhit va bolalarning xulqi o'rtasidagi bog'liqliklar yuzasidan statistik ma'lumotlar olingan. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan agressiv hatti-harakatlar, ularning paydo bo'lish sabablari, shakllanish mexanizmlari va psixologik korreksiyasi usullari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, agressivlik bolada tug'ma yoki tasodifiy paydo bo'ladigan holat emas, balki ijtimoiy-muhitiy omillar, oilaviy tarbiya, emotsional etishmovchilik, pedagogik yondashuv va shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida shakllanadi. Boshlang'ich sinf — bu bola shaxsi rivojlanishining eng nozik va muhim bosqichidir. Bu davrda bola atrof-muhitdan ta'sirchan bo'lib, salbiy tajribalar uning xatti-harakatlarida agressivlik kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Aynan shu jihatdan bolalardagi agressiv xulqni erta aniqlash va unga ijobiy ta'sir ko'rsatish ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismidir. Bass—Darki metodikasi asosida o'tkazilgan psixodiagnostika orqali aniqlangan natijalar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik o'quvchilarda og'zaki va jismoniy agressiya turlari ustunlik qiladi. Bu esa bolaning o'z his-tuyg'ularini so'z bilan ifodalashda qiynalayotganini, ichki konfliktni tashqi kuch bilan hal qilishga moyilligini bildiradi. Bu kabi holatlar nazoratsiz qolsa, bola jamoadan ajralib qolishi, o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklar va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Olib borilgan korreksion mashg'ulotlar bolalarda sezilarli ijobiy o'zgarishlarni yuzaga chiqargani isbotlandi. Mashg'ulotlarda emotsiyalarini ifodalash, ijtimoiy rollarni tushunish, muloqot madaniyatini o'rganish va o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali agressivlik darajasini pasaytirish mumkinligi amaliyotda isbotlandi.

Xulosa: boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi agressiv hatti-harakatlarni korreksiya qilish, ularning ijtimoiy va psixologik moslashuvini yengillashtiradi, ijobiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Bu esa bola shaxsi rivojlanishi, o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyati va jamiyatga sog'lom shaxs bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar va internet manbaalari:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston – inson qadri ulug'langan jamiyat". Prezident nutqlari. – 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligi statistik axboroti, 2024-yil.
3. Quronboyeva M. Maktab psixologiyasi asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
4. Xodjayev R. Amaliy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
5. Solihova N. Agressiv bolalar bilan ishslash usullari. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2019.
6. Bass A., Darki A. Agressivlikni o'chash metodikasi. – Moskva, 1977.

Internet manbaalari

- www.psychologytoday.com,
www.pedagoglar.uz,
www.lex.uz